


FINLAND

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY





ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



**SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-
ECONOMIC SCIENCE THEORY**
International scientific-online conference

Part 17
APRIL 7th
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

HELSINKI 2024

SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY: a collection of scientific works of the International scientific online conference (7th April , 2024) – Finland, Helsinki: "CESS", 2024. Part 17 –249p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

" SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY ". Which took place in Helsinki on April 7th, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

TABLE OF CONTENTS:	
Zaripova Gulbahor Komilovna <i>O'RTA UMUMIY TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY VA KASBIY YETUK TARBIYALASH – MUSTAQILLIK TAQOZOSI</i>	7
Qurbonova Muattar Erkinovna, Abdulaxatova Manzura Akramjonovna <i>PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERINING UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI (KIMYO FANI MISOLIDA)</i>	19
Qurbonova Muattar Erkinovna, Abdulaxatova Manzura Akramjonovna <i>KIMYO FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	23
Qurbonova Muattar Erkinovna, Abdulaxatova Manzura Akramjonovna <i>BO'LAJAK KIMYO ФАНИ O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KLASTER YONDASHUVDAN FOYDALANISH МЕХАНИЗМЛАРИ</i>	27
Абдурахманов Муроджон Сайитқулович <i>ПРИОРИТЕТНОСТЬ ОЦЕНКИ ГИБКОСТИ ТАЗОБЕДРЕННЫХ СУСТАВОВ У ЮНЫХ КАРАТИСТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННО-ИЗМЕРИТЕЛЬНОГО УСТРОЙСТВА</i>	30
Yusupova Hanifa <i>O'ZBEK ADABIYOTIDA MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARI TAHLILI (ULUG'BEK HAMDAMNING "SO'Z" HIKOYASI MISOLIDA)</i>	36
Jumanazarova Shahnoza Ravshanbekovna <i>KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QUV FANLARIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</i>	39
Umarova Gulhayo Murodiljon qizi, Xudayberganova Mohida Murotjon qizi <i>KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA KLASTERLI TA'LIMNING AHAMIYATI</i>	43
Ospanova Saltanat Berdibaevna <i>INGLIZ TILI VA QOZOQ TILINING TIPOLOGIYASI VA O'QITISH METODIKASI BO'YICHA FARQLANISHI</i>	49
Qilichova Guljahon A'zamjon qizi <i>SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATI</i>	52
Arslonova.N.A <i>KASALLIKLAR PROFILAKTIKASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA TIBBIY SAVODXONLIKNING O'RNI.</i>	55
Madumarov Muhammadqodir <i>TIJORAT KORXONALARIDAGI BOSHQARUVNING IQTISODIY OMILLARI</i>	61
Bakirov Navro'zbek <i>KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMLARIDA QUYI BO'G'INLARNI BOSHQARISH</i>	65
Tohirjonov Muhiddinjon <i>BOSHQARUVNI FILIALLARARO TASHKIL ETISH</i>	68
Mamajonova Shaxrizoda <i>KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH</i>	71
Джурраева Шахнозахон Гайратовна <i>ОСОБЕННОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ В 3D-ТЕХНОЛОГИИ</i>	74
To'xtayev G'aybulla Mangliyevich <i>"O'ZBEKISTONDA MASHINASOZLIKNING RIVOJLANISHI VA ATROF MUHIT HIMOYASI" MAVZUSINI O'QITILISHI</i>	79
Israilova Lazokat Gafurjanovna <i>HOZIRGI GLOBALLASHUV ASRI DAVRIDA YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI</i>	83
Махмудова Сарафроз Шухрат кизи, Топволдиев Казбек Ахмадалиевич <i>СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЧАСТИЦ В РОМАНЕ Ф.М.ДОСТОЕВСКОГО «ИДИОТ»</i>	86
Зухриддинова Хилола Шавкатжон кизи <i>ВВОДНЫЕ И ВСТАВНЫЕ КОНСТРУКЦИИ В ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ М.И.ЦВЕТАЕВОЙ</i>	90
Абдуллаева Насибохон Алижон кизи, Топволдиев Казбек Ахмадалиевич <i>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АРХАИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПЕРСОНАЖЕЙ В</i>	100

<i>ПОВЕСТИ Л.Н.ТОЛСТОГО "ДЕТСТВО"</i>	
Xamidova Diyora Rustam qizi <i>MAMLAKATIMIZDA YOSH AVLODNI YETUK KOMIL INSON QILIB TARBIYALASH MAQSADIDA YARATILAYOTGAN SAYI HARAkatLAR</i>	104
Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna <i>THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS OF SECONDARY SCHOOLS</i>	107
Дилноза Абдужалилова, Жу'раева У'ғилой <i>РОЛЬ БЮДЖЕТНОГО УЧЕТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ И ОТЧЕТНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ.</i>	110
Nasriyev Baxtiyor Kaxramonovich, Nurillayev Shahobiddin Supxonovich <i>TA'LIMiy O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI</i>	113
Hamroyeva Oydin Normurod qizi, Mansurova Maftuna <i>MAKTABGACHA YOSH DAGI BOLALARDA IQTISODIY TA'LIMNI SHAKLLANTIRISH</i>	117
Usmonova Umida Baxtiyrovna <i>PUBLITSISTIKANING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	124
Ш. Ш. Норкўчқоров <i>МУАЛЛИМИ ДОНИШГОҲИ ДАВЛАТИИ БУХОРО</i>	127
Bozorova Ro'zigul Xurramovna <i>SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING INSONLAR HAYOTIDA ETNOPSIXOLOGIK AHAMIYATI VA "ODAM" ASARINING BOSHQA XALQLAR HAM TANISHISHI UCHUN INGLIZCHA TARJIMASI</i>	133
Mamataliyeva Navbahor, Razzakova Sayyora Turayevna <i>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA RANG KOMPONENTLI IBORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI</i>	139
Islomova Marhabo, Xushvaqtova Madina <i>AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMIDA TARQALGAN SHUVOQ O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UN DAN OQILONA FOYDALANISH</i>	144
Рамазонова Зарина Салимовна <i>ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В БИОХИМИИ</i>	148
Vaxromova Vasfiya, Erniyozova Dilyora <i>TA'LIM JARAYONINING MA'LUMOT BERUVCHI, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI FUNKTSIYALARINING BIRLIGI</i>	152
Ne'matullayev I.I <i>"STOL TENNIS BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABALARNI JISMONIY TAYYORGARLIGI HAMDA TEXNIK TAYYORGARLIGIDA ZARBALAR BERISH SAMARADORLIGI"</i>	156
Adizova Obodon Istamovna <i>RIVOYATLAR XALQ O'TMISHINING BADIY TARIXIDIR</i>	165
Nazarova Navbakhor Akhrorovna, Bobomurodova Sevinch Nurali Kizi <i>METHODS OF TEACHING ENGLISH TO ELEMENTARY SCHOOL LEARNERS</i>	169
Khudoev Samandar <i>CLASSIFICATION OF UZBEK PUZZLES ACCORDING TO THE PERIOD OF CREATION</i>	175
Polvanova Mahzuna Farxodovna <i>FUNCTIONAL AND SEMANTICAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH LANGUAGE</i>	181
Sarvinoz Kuvandikova Yuldosheva Zebo Vohid qizi <i>"CULTIVATING PROFICIENCY IN ENGLISH LANGUAGE THROUGH IDIOMATIC MASTERY"</i>	185
Sarvinoz Kuvandikova Saparboyev Mahkam Omonboy og'li <i>ENHANCING READING SKILLS: THE PECULIARITIES OF MOBILE AND INTERNET APPLICATIONS FOR LEARNERS</i>	188
Lazizbek Xayitov, Ahmedova Gavhar Ma'rufjon qizi <i>KORREKSION - LOGOPEDIK JARAYONDA OVOZ VA NAFASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN LOGOPEDIK O'YINLARNI OLIB BORILISHI</i>	190

RIVOYATLAR XALQ O'TMISHINING BADIY TARIXIDIR

Adizova Obodon Istamovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti
obodon63@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada folklorshunoslik janri uning tarixi va taraqqiyot tamoyillari, xalq epik janrida rivoyatlarning o'рни yoritilgan. Rivoyatlarning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, xususiyati va tuzilishiga oid ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik va xalq orasidan chiqqan yuksak shaxslarning hayoti, avlodlarning asriy aloqalarini tushunishga yordam beruvchi ma'lumotlar tahlilga tortilgan.

V dannoy statye osvещены жанр фольклора, его история и принципы развития, роль повествований в жанре народного эпоса. Приводятся сведения о происхождении, эволюции, природе и структуре нарративов. Также в статье анализируются сведения, помогающие разобраться в народном устном творчестве, фольклористике, жизни высокопоставленных людей из народа, вековых отношениях поколений.

The article covers the genre of folklore, its history and principles of development, the role of narratives in the genre of folk epic. Information is provided on the origin, evolution, nature and structure of narratives. The article also analyzes information that helps to understand folk oral literature, folkloristics, the lives of high-ranking people from the people, and age-old relations between generations.

Tayanch so'zlar: folklorshunos, afsona, rivoyat, xalq og'zaki ijodi, epik janr, urf-odat, tarixiy, etnografiya, tarixiy taraqqiyot, an'ana, qadriyat, milliylik, hayotiy hikoya, toponimik rivoyatlar, tarixiy rivoyatlar, qo'shiq, geografik joy nomlari.

Klucheviye slova: фольклорист, легенда, повествование, фольклор, эпический жанр, традиция, исторический, этнография, историческое развитие, традиция, значение, народность, жизнеописание, топонимические повествования, исторические повествования, песня, географические топонимы.

Key words: folklorist, legend, narration, folklore, epic genre, tradition, historical, ethnography, historical development, tradition, meaning, nationality, biography, toponymic narratives, historical narratives, song, geographical place names.

Rivoyatlar xalq o'tmishining badiiy tarixidir. Ularda xalq hayotida uzoq o'tmishda yuz bergan voqealar, qachonlardir yashab o'tgan tarixiy shaxslar faoliyati haqida hikoya qilinadi. Rivoyatlar tarixni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivoyatlar – voqelikni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiruvchi, syujet tizimida mifologik obrazlar uchramaydigan, voqelik talqini hududiy –etnografik lokallik kasb etishi bilan xarakterlanadigan, qadimiy asoslarga ega bo'lgan, xalq orasida keng ommalashgan folklor janridir. Ularda hayot voqeligi real aks ettiriladi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodining qadimiy, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lgan va hayotiy voqelikni

hayotiy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlardir.

Rivoyatlar – xalq og'zaki ijodidagi mustaqil, keng ommalashgan epik janrlardan biri. Ular u yoki bu voqea haqida xabar beradi va uni tasdiqlaydi. Kichik hajmli epik nasr namunasi bo'lgan rivoyatlarda voqelikni bayon qilish usuli retrospektivlikka asoslanadi. Retrospektivlik rivoyat janrining yetakchi xossalaridan biridir. Chunki rivoyatlarda tasvirlanayotgan voqelikning zamonaviy yo'nalishi – o'tmishga qaratiladi.

Shu sababli rivoyatlar syujetida ko'pincha voqelikning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligiga ishora qiluvchi «Qachonlardir», «Qadim zamonda», rivoyat qilishlaricha», «bobolarimizning aytishicha», «Qadimgi rivoyatlarga ko'ra» kabi an'anaviylik uchraydi. Folklorshunos K.Imomov bu haqda «Rivoyatlarda vaqt nisbatan konkretidir» deb yozsa, M.Jo'rayev «Rivoyat janri syujetining vaqt belgisi tarixiy –etnografik aniq muddat ko'rsatkichi bilan ifodalanadi» deya qayd etadi. Xullas, rivoyatlarda tasvirlangan voqealar tarixan aniq vaqt doirasida kechadi.

Rivoyat mavzusi tinglovchilar tomonidan chindan bo'lib o'tgan voqeaning talqini deb qaraladi. Rivoyatlar keng xalq ommasi tomonidan ijro etiladi. Uning asosiy vazifasi axborot berishdan iborat bo'lgani bois, rivoyat aytuvchidan muayyan epik bilim, tajriba, ijrochilik mahorati talab etmaydi.

Rivoyatlarning syujeti sodda, qurilishi oddiydir. Ular ko'pincha bir necha motiv asosiga qurilgan bo'ladi. Ularda badiiy tasvir vositalari juda kam uchraydi. Rivoyatlarda tasvirlangan qahramonlar hayotiyligi bilan xalq nasrining boshqa janrlaridagi obrazlar tizimidan ajralib turadi. Ularda g'ayrioddiy xususiyatlarga ega mifologik obrazlar uchramaydi.

Rivoyatlar badiiy shakli hamda vazifasiga ko'ra afsonalarga juda yaqin turadi. Lekin ularning har biri folklorning ikki mustaqil janri sifatida bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jumladan, ular voqelikni bayon etish shakliga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Afsonada voqelik xayoliy uydirma, fantastika, mifologik talqin asosida bayon etilsa, rivoyatda hayotiy uydirma, tarixiy–etnografik aniqlik, reallik asosida hikoya qilinadi.

Rivoyatlar g'oyaviy-mavzuiy jihatdan rang–barang bo'lib, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) toponimik rivoyatlar,

b) tarixiy rivoyatlar,

Toponimik rivoyatlar yana bir necha ichki ko'rinishga bo'linadi:

a) aholi yashaydigan joylar nomining kelib chiqish sabablarini izohlovchi oykonomik rivoyatlar;

b) suv havzalari - daryo, ko'l, quduq, soy, chashma, ariq nomining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan gidronomik rivoyatlar;

c) tog'u toshlar, tepaliklar, g'orlar, cho'llar to'g'risidagi oronomik rivoyatlar;

d) mozor, qabriston nomlari, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining nomi bilan bog'liq nekronomik rivoyatlar.

Toponimik rivoyatlarda muayyan jug'rofiy atamaning paydo bo'lishi aniq faktlar va etnofolkloriy detallar bilan tushuntiriladi, joy nomining vujudga kelish sababi izohlanadi.

Tarixiy rivoyatlarda haqiqatda hayotda bo'lib o'tgan voqealar, yashab o'tgan shaxslar to'g'risida so'z yuritiladi. Atoqli va mashhur shaxslarning hayoti va faoliyatini hikoya qilish orqali axloq va odobning ideal normalari tashviq etiladi. Jumladan, To'maris, Shiroq kabi vatanparvarlar, Ibn Sino kabi buyuk tabib, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlar, Mashrab singari ilohiy ishq yo'liga kirgan oshiq, Amir Temur kabi jasoratli va dono hukmdor, Imom Ismoil Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy singari din va tasavvuf arboblari haqida qator rivoyatlar yaratilganki, ularni xalq hamisha sevib tinglaydi.

Tarixiy rivoyatlar ko'pincha u yoki bu shaxsni ko'rgan-bilganlarning yoki biror tarixiy voqeaning guvohi bo'lganlarning xotira-esdaliklari asosida yaratiladi. Tarixiy rivoyatlarda tarixiy shaxs nomidan boshqa dalil uchramasligi ham mumkin.

Tarixiy shaxs va tarixiy voqealarga daxldor rivoyatlar yozib olingan davriga qarab, tarixiy faktni talqin qilish xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Aytaylik, xalq orasida paydo bo'lgan davridayoq yozib olingan rivoyatlarda tasvirlangan voqea va hodisalar o'sha davr shart-sharoiti va ruhiga mos keladi hamda keltirilgan dalillarning to'liqligi yu aniqligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada Gerodotning "Tarix" asari orqali bizgacha etib kelgan "To'maris" rivoyati haqida fikr yuritmoqchimiz. Unda massaget qabilasining oqila va jasoratli hukmdori To'maris ismli ayolning o'z elini hiylakor bosqinchi Eron shohi Kir hujumidan omon saqlab qolganligi haqida hikoya qilinadi.

To'maris beva ayolligi uchun Kir unga uylanish bahonasida sovchi yuborib, Shu yo'l bilan massagetlar erini osongina qo'lga kiritmoqchi bo'ladi. Biroq Kirning bu yovuz rejasini To'maris ilg'ab, uni ochiqdan-ochiq kurashga chorlaydi. Kir Krezning maslahati bilan hiyla ishlatib, To'marisning o'g'li Sparganiz boshchiligidagi massagetlarning bir guruhini qo'lga oladi. Sparganiz o'z ahvolidan orlanib, joniga qasd qiladi. Shundan so'ng ikki o'rtada qattiq jang bo'lib o'tadi. Kir bu jangda sharmandalarcha engilib, halok bo'ladi. Jang tugagach, To'maris uning jasadini murdalar orasidan toptirib, uni qon to'ldirilgan meshga tashlaydi va "Men seni qonga to'ydiraman deb bergan va'damning ustidan chiqdim", -deydi.

Rivoyatlar qat'iy kompozitsiyaga ega bo'lmaydi. Ko'pincha ular ikki yoki uch epizoddan tashkil topadi. Ixcham syujetda yaratiladi. Ayrim rivoyatlar go'yo tugallanmagandek, davomi bordek tuyuladi. Rivoyatlarning syujet tizimidagi motivlar yaxlit silsilani tashkil etadi. Ularda ajdodlar kulti, suv kulti, hosildorlik va daraxtlarga aloqador xalq qarashlari, tog', ranglar, dunyo tomonlari, animizm va totemizm bilan aloqador qadimiy tasavvurlarning epik talqinlari o'z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizova O.I. Folklor janrining tarixi va taraqqiyot tamoyillari// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/4 (100), 2023 й. В-260 – 267
2. Adizova O.I. Les contes biographiques et esthétiques// Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 |2023. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938.

3. Adizova O.I. THE CLASSIFICATION OF THE PLOT COMPOSITION OF THE PROSAIC FOLKLORE // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics For more information contact: <mailto:editor@inter-publishing.com> Volume 2, No 1 | Jan – 2023

4. Adizova O.I. The Essential Function of the Proverb// BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:5|2023

4. Adizova O.I. THE CLASSIFICATION OF THE PLOT COMPOSITION OF THE PROSAIC FOLKLORE // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 11 | Nov-2023 Published

5. Adizova O.I. LES CLASSEMENT DES FAITS FOLKLORIQUES FRANÇAIS// Innovative Development in Educational Activities (IDEA) Published November15,2023Versionv1
https://zenodo.org/search?q=metadata.creators.person_or_org.name%3A%22

6. Adizova O.I. The exceptional in the works of Van Gennep// Special issue ijssir april 2023 issn 2277-3630 (online), published by international journal of social sciences & interdisciplinary research., comparative study of literature, comparative linguistics, translation studies ,2023,B.121-126.

7. Adizova O. Fransuz va o'zbek to'y marosimlari turlari, mohiyati va xususiyati// Til va adabiyot ta'limi ilmiy jurnal, ISSN 2010-5584, 2023.-№ 12, -B.28-31

8. Adizova O. Topishmoqlarning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, www.interscience.uz 2023.-№ 12, -B.74-79

9. Adizova O. MAQOLLAR XALQ IJODIYOTINING BEBAHO NAMUNASIDIR// BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI 2023.-№10. -B. 176-180

10. Adizova O.I. Folklorshunoslikka bir nazar. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi muammo va yechimlar.Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plamini. Toshkent- 2023.-B 127-131

11. Adizova O.I. Специфика фольклора. Filologiya istiqbollari va chet tillar o'qitishning amaliy imkoniyatlari. GulDU -2023y,-B. 45-51

12. Adizova O.I. Bolalar o'yinlari xalqning milliy an'alaridan so'zlaydi TRANSLATION AND INTERCULTURAL COMMUNICATION THROUGH THE ENGLISH LITERATURE AND LINGUISTICS Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro -2023.-P 125-128.